

TIL YASHASA – MILLAT YASHAYDI

Kabuljonova Gulbaxor Komiljonovna

Qo‘qon universiteti Andijon filiali

O‘zbek va rus filologiyasi kafedrası v.b.professori, filologiya fanlari nomzodi

O‘lmasbekova Musharraf Dilshod qizi

Qo‘qon universiteti Andijon filiali, 1-bosqich talabasi

kabulzonovagulbahor@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Til yashasa – millat yashaydi” g‘oyasi zamonaviy lingvistik va ijtimoiy yondashuvlar asosida tahlil etildi. Tilning millatning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va ma’naviy dunyoqarashini ifodalovchi asosiy vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, ona tilining milliy ongni shakllantirish va jamiyat barqarorligini ta’minlashdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Maqolada til va millat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: til, millat, madaniyat, davlat tili, milliy til, adabiy til

Abstract: This article analyzes the idea “If a language lives, the nation lives” based on modern linguistic and sociological approaches. It is scientifically substantiated that language is the main means of expressing a nation’s historical memory, cultural values, and spiritual worldview. Furthermore, the role of the mother tongue in shaping national consciousness and ensuring social stability is demonstrated. The article theoretically and practically examines the close interconnection between language and nation.

Keywords: language, nation, culture, state language, national language, literary language

Аннотация: В данной статье идея «Если живёт язык — живёт нация» анализируется на основе современных лингвистических и социологических подходов. Научно обосновывается, что язык является основным средством выражения исторической памяти, культурных ценностей и духовного мировоззрения нации. Также показана роль родного языка в формировании национального сознания и обеспечении социальной стабильности. В статье теоретически и практически рассматривается неразрывная связь между языком и нацией.

Ключевые слова: язык, нация, культура, государственный язык, национальный язык, литературный язык.

Ona tilim – so‘lmas gulim

A. Nurmonov

Til olam haqidgi u yoki bu axborotni tashiydigan, faqatgina xabarni yetkazadigan vosita emas, u bilimlarni to‘plovchi, saqlovchi, ularni tizimga soluvchi tizim hamdir[1.13]. Ana shu ma’noda til tizim sifatida har bir xalqning yahlit holdagi milliy qifofasini, madaniyatini, tafakkurini, yashovchanligini belgilovchi muhim fenomen hisoblanadi. Prof.A.Nurmonov til va xalqning o‘zaro munosabati masalasi haqida quyidagi fikrlarni bayon etadi:” Insonning kamolot darajasi uning so‘zi orqali, millatning madaniyat darajasi tili bilan belgilanadi. Shuning uchun til millatning qalbi hisoblanadi. Millat qalbi uning tili orqali namoyon bo‘ladi”[2.293]. Yuqorida keltirilgan

fikrlardan shuni anglash mumkinki, tilning yashovchanligi millatning taqdirida asosiy o'rinni egallaydi.

Tarixga nazar tashlasak, tilimiz turli davrlarda, ya'ni arablar istilosi davrida, qoraxoniylar davrida, mo'g'ullar istilosi davrida, temuriylar davrida, rus bosqini davrida turli shakllarda taraqqiy etib kelganligiga guvoh bo'lamiz. Ana shu tarixiy taraqqiyot bosqichlarida o'zbek xalqi ham etnik jihatdan turli ijtimoiy omillar ta'sirida shakllandi. Til ham asrlar osha xalq tarixi va taqdiri bilan bog'liq holda taraqqiy etib keldi. "Til avloddan-avlodga o'tib borar ekan, undagi har bir vosita, ifoda yillar davomida takomillashib, boyib boradi, sayqal topadi"[3. 204] Ya'ni prof.N. Mahmudov ta'biri bilan aytganda, "Til har qanday xalqning dunyolarga bermaydigan muqaddas boyligi, uzun umri davomida yiqqan-tergani ana shu boylikda o'z tajassumini topadi. [4.3-5]. Boshqacha qilib aytganda, xalqning benihoya boy tarixiy-madaniy, etnik-ma'naviy tajribalari, ya'ni xalqning o'zigagina xos "olamning lisoniy manzarasi" til vositasida shakllangan va o'z ifodasini topgan bo'ladi. [5.3-4] Bu, o'z navbatida, tilning, u orqali esa millatning borligini, yashaovchanligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Prof.A.Nurmonov Sobiq sho'rolar davrida zonal tilni yaratish bo'yicha yuritilgan stalin til siyosati tufayli boshqa tillar kabi o'zbek tilining ham vazifasi birmuncha cheklanganligini aytib o'tadi. Til va xalq maqomining birligi, tengligi istiqloq tufaligina qaror topdi.Ya'ni, O'zbek tiliga "Davlat tili" maqomining berilishi o'zbek xalqi va uning tili taqdiridagi muhim bir yangi bosqichni, yangi davrni boshlab berdi. Istiqloq tufayli o'zbek tili o'zbek xalqining *Milliy tili* sifatida, *Davlat tili* sifatida o'zining buyuk maqomiga erishdi. Tilimiz sobiq Ittifoq davrida faqat o'zbek xalqi uchun oddiy so'zlashuv tili va aloqa vositasiga aylanib qolgan bo'lsa, bugungi kunga kelib davlat tili sifatida jahondagi boshqa tillar kabi e'tibor va e'tirofga ega bo'lmoqda hamda amalda keng qo'llanilmoqda. Til ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lganligi sababli uning me'yorlarini belgilash davlatning til siyosati bilan ham bog'liq. [6.244]

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Necha asrlar osha ajdodlarimizdan bizga bezavol o'tib kelayotgan ona tilimizning ravnaqi va istiqboli haqida qayg'urish – bu millatning o'zligini anglashi, uning ma'naviy kamolotini yuksaltirish uchun kurash demakdir. Davlat tilining obro' – e'tobori butun xalq, butun jamiyatning obro' – e'tiboridir." [7.]

Bugun Davlat tilining maqomi, amalda qo'llanilishi bilan bog'liq fazifalarni tizimlashtirish hamda nufuzini yanada oshirish Davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buning isboti sifatida davlatimiz rahbari tomonidan bir nechta qaror va farmonlar qabul qilinganligini alohida qayd etish mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrda PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2020-yil 20-oktabrdagi PF -6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qator Farmonlari qabul qilindi. Til millat ruhi va milliy tafakkur qurolidir. Har bir xalqning "ona allasi" bilan qalbiga kirib butun bir ruhiyatiga singib, tomirlarida jo'sh urib oqib turguvchi qon misoli yashovchanligini ta'minlovchi "ona tili"si bo'ladi. Bu esa boshqa tillarning faoliyat ko'rsatishi, rivojlanishi, respublikamizda yashovchi barcha millat vakillarining o'z ona tilida erkin muloqot qilishi uchun aslo to'sqinlik qilmaydi. Aksincha, Qonunning 2-, 4-, 6-, 10- bandlarida boshqa millat vakillari tillarining amal qilishi himoyalaniishi belgilab qo'yilgan. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonda adolatli til siyosati amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Bu bevosita ko'pmillatli davlatimizda o'zaro

hamjihatlik, xayrixohlik, bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirishga hamda millatlararo barqarorlik, tinchlikni ta'nilashga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik davrida davlat tili hisoblangan ona tilimizning jamiyatdagi roli, uning ijtimoiy vazifalari, tilning shaxs hayotida tutgan o'rni tobora oshib bormoqda [8.13]. Natijada, globallashuv jarayonida til va jamiyatning o'zaro aloqasi, tilning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy omillar, jamiyatning turli sohalarida til funksiyalari ta'sirining oshishi va buning natijasida tilning ichki va tashqi tomondan rivojlanishiga doir izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda[9.5].

Xulosa o'rnida professor N. Mahmudovning quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tmoqni joiz topdik."O'zbek tili o'zbek xalqining siyrat-u suratini, tafakkur va tahayyul olamini, o'tmish-u bugunini boricha aks ettiradigan va, muhimi, shu tilning o'zi vositasida hamda o'z qo'li bilan chizilgan ham ichki, ham tashqi xolis qiyofasidir. Bu qiyofa xalqimizning ming yillik lisoniy-tarixiy taraqqiyoti jarayonlarida, betakror madaniy va aqliy, adabiy-badiiy durdonalarida bo'y ko'rsatib turibdi. Bu qiyofada parvarish-u muhofazaga, e'zoz-u ehtiyotga, ko'z qorachig'idek asramoqqa, yanada kamol sari eltmoqqa shoyon muhtasham boylikdir"[10.15]. Darhaqiqat, bu muhtasham qiyofani avaylab-asramoq ozbek xalqining muqaddas burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov F. O'zbek milliy qadriyatlarining lingvomadaniy aspekti. Filologiya fanlari doktori(DSc) diss.avtoref. Andijon, 2024.60 b.
2. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3-жилд.-Т."Академнашр" 2012. 367 б.
3. Абдурасулова У. "Хамса" да сўз талқини. / Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Андижон, 2016. 223 б.
4. Махмудов Н.Ўхшатишлар ва миллий образ. // ЎТА, 2013, № 1
5. Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. Тошкент, 2017.175 б.
6. Раупова Л. Тил маданияти миллатнинг умумий маданияти сифатида. / Проф.Х .Неъматовнинг 75 йиллигига бағишланган Республика илмий анжумани материаллари.Тошкент, 2017. 319 б.
7. Мирзиёев Ш. Ўзбекистон халқига байрам табриги. // Халқ сўзи, 2020 йил 21 октябрь
8. Худойберганова Д. Замонавий ўзбек терминологиясининг тараққиёт омиллари. //ЎТА, 2023, №4.
9. Қўшақова Б. Тил функционал ривожланишининг социолингвистик таҳлили. Фил.фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) дисс.автореф. – Фарғона, 2019. - Б.5.
10. Махмудов Н. Ўзбек тилининг мўтабар мақоми. //ЎТА, 2022. № 5.